

Uzbekistan Airways Kiyevdagi ko'rgazmada ishtirok etmoqda

2021 5 Oktabr

«Uzbekistan Airways» AJ 5-6 oktabr kunlari Kiyev shahrida bo'lib o'tayotgan UITM-2021 (Ukrainian International Travel Market) ko'rgazmasida ishtirok etmoqda. Ta'kidlash joizki, ushbu ko'rgazma Uzbekistan Airways jamoasi uchun joriy yildagi birinchi bo'lib, unda Toshkent-Kiyev-Toshkent qatnovi tiklanishi asosiy mavzu bo'ldi.

UITM-2021 ko'rgazmasi har yili o'tkaziladi hamda Ukraina va xorijdan turizm sanoati mutaxassislarini birlashtirish va umumlashtirish uchun samarali xalqaro platforma bo'lib xizmat qiladi. Ukrainian International Travel Market har yili yuzlab ishtirokchi kompaniyalar, mehmonxonalar, dam olish maskanlari, aviakompaniyalar va aeroportlar delegatlari, shuningdek, xalqaro va milliy sayyohlik tashkilotlari, diplomatlar, davlat vazirliklari va idoralari vakillarini, Ukraina va 20-ga yaqin mamlakatlardan tegishli tarmoqlarning agentlarini birlashtiradi. Tadbirlarga Ukraina va boshqa mamlakatlarning barcha hududlaridan minglab B2B auditoriyalari tashrif buyurishadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, 26-sentabr kuni Borispol xalqaro aeroporti ilk Toshkent-Kiyev aviaqatnovi amalga oshirilganidan so'ng Uzbekistan Airways havo kemasini suvli arka bilan kutib oldi. Ikki davlat o'rtasidagi aviaqatnovlar oradan 6 yil o'tib qayta tiklandi va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways